Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini xo'jalik yurituvchi subyektlarda takomillashtirish.....	1103
Xayitboeva Laylo Oybekovna	
Davlat moliyaviy nazorati tizimida tashqi audit: rivojlangan mamlakatlar amaliyoti.....	1109
Kuliyev Komil Shuxratovich, A.Astanovulov	
Moliyaviy instrumentlarni hisobga olishda biznes modelning ahamiyati va amaliy yondashuvlar.....	1114
Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Tijorat banklarida risklarni boshqarishning ustuvor yo'nalishlari.....	1118
Tursunov Ilxom Toirovich	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga tasir etuvchi omillarni baholash.....	1124
Yuldasheva Gulmira	
Managing tourism in fragile ecosystems: a case study approach.....	1128
Dilmurod Nasimov, Shahrizoda Sirojiddinova	
Tadbirkorlikni innovatsion-investitsion jihatdan baholash uslublari.....	1134
Fayziyev Shavkat Shaxobidinovich	
Зарубежный опыт развития инновационной деятельности предприятий энергетической отрасли.....	1141
Бегмуллаев Отабек Ирисалиевич	
Leveraging machine learning for big data analytics: a strategic overview.....	1148
Ismaylov Timur Kuanishbaevich, Kurbanbaev Bakhtiyar Bakhtovich, Orazbayev Aqilbay Jenisbay uli	
Ta'lim muassasalarida xarajatlar smetasi ijrosining dastlabki hisobini yuritilishi.....	1152
Isoqulov Fazliddin Shamsiddin o'g'li	
"Yengil sanoat korxonalarini qo'llab-quvvatlash choralari haqida".....	1158
Otaxanova Umida Olim qizi	
Investitsion-qurilish jaryonlarini samarali boshqarishning tashkiliy modellari va ulardan foydalanish usullari.....	1162
Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li	
Qimmatli qog'ozlar bozorining mohiyati bo'yicha nazariy asoslar.....	1169
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Adoption of electric vehicles in logistics: opportunities and challenges in Uzbekistan.....	1175
Oblokulova Parvina	
Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb qilishning xorijiy mezonlari.....	1182
Jurayev Abdug'affor Sofarovich, Nazirova Sayyora Baxtiyorovna	
Raqamli tranformatsiya jarayonlarining mehnat bozori konyukturasiga ta'siri.....	1187
Fayzullayev Nurulla Baxromovich, Xudaybergenova Shukurjon Erkinovna	
Milliy iqtisodiyotda internet xizmatlarini rivojlantirishning o'ziga xos yondashuvi.....	1194
Niyozova Shohsanam Nuritdinovna	



Auditorlik xulosalarini shakllantirishda auditorlik dalillariga qo'yiladigan talablar	1199
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	
Qishloq xo'jaligi sohasini takomillashtirishda investitsion loyihalarning iqtisodiy mohiyati	1203
Israilova Xikoyat Musakulovna	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari	1207
Dadaboyeva Marguba Mamasoliyevna	
Eko va agro-turizmga raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqishning istiqbollari	1212
Nurfayziyeva Mohinur Zayniddinovna	
The importance of the cluster system in the agricultural field	1217
Sherkulov Shokhrux Erkin o'g'li	
Qishloq xo'jaligi sug'urtalash tizimini takomillashtirish yo'llari	1221
Mardonov Mashrab Mansurovich, Muxtorov Abduxolik Abdusalimovich	
Aksiz solig'i amaliyotining genezisi, milliy xususiyatlari, turlari va vazifalarining nazariy jihatlarini	1225
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Iqtisodiyotning real sektor tushunchasi, uning tarkibi va iqtisodiyotdagi ahamiyati	1230
Mahmudov Nurali Komilovich	
Korporativ moliya tizimini rivojlantirishda raqamli moliya vositalari va texnologiyalarning integratsiyasi	1241
Xalbekov Ozodbek Xudoykulovich	
The influence of tour interpretation on perceived heritage values: a comparative analysis of tourists with and without guided interpretation at a heritage destination	1245
Shokhnigorbegim Juraeva	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida aloqa xizmatlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirishning metodologik asoslarini takomillashtirish	1252
Xazratov Abror Panjiyevich	
Madaniy meros obyektlari asosida barqaror turizmni rivojlantirish strategiyalari	1257
Abriev Zoirjon	
Пути инновационного развития национальной экономики	1262
Жураев Тошболта Тухтаевич	
Hududlarda turizmni rivojlantirishda to'siqsiz, barqaror turizmni tashkil etish zarurati	1267
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Application of ifrs in budgetary accounting	1272
G. Djambakieva	
Transport xizmatlari sektorining rivojlanishini statistik tahlili: xorazm viloyati misolida	1276
Raximov Alisher Ibragimovich	
O'zbekistonda 2024-yil davomida yirik soliq to'lovchilarni soliq ma'murchiligi tahlili	1281
Xushatov Nuriddin Maxmatqulovich	
Zamonaviy ta'lim sifatini baholashning nazariy-metodologik asoslari	1288
Rahimova Qutlibika Ergashevna	
Chakana va ulgurji savdo korxonalari faoliyatini rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholash	1293
Yuldasheva Gulmira	
Zamonaviy axborot tizimlari orqali soliq qarzдорligini undirish mexanizmining takomillashtirish yo'llari	1296
Maxmadustov Jalol Maxmadustovich	
Hududlarda pillachilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va imkoniyatlari	1303
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
Korxonaning investitsion jozibadorligi oshirish yo'llari	1313
Axtamova Parizod Oybek qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari	1319
Adilova Zulfiya Djavdatovna, Shoev Alim Xalmuratovich	



Yog' – moy sanoati korxonalarida soliqlar hisobi va auditi jarayonlarida tahliliy amallardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	1327
A'zamova Aziza Olimjon qizi	
Qurilish materiallari ishlab chiqarish faoliyati iqtisodiy samaradorligini oshirishning xorij tajribasi.....	1334
Umirova Gulmira Shodiboy qizi	
Xalqaro moliya-kredit institutlar bilan hamkorlikning iqtisodiy-huquqiy asoslari	1343
Qosimov Bobur Sobirovich	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda yengil sanoat eksporti diversifikatsiyasining roli va yo'nalishlari.....	1347
Otamurodov Shavkat Nusratillayevich, Eshqulova Nasiba Normo'minovna	
Система раннего предупреждения о снижении финансовой устойчивости предприятия на основе ключевых показателей эффективности (KPI).....	1359
Тажибаева Кизларгул Ажиниязовна	
Soliq tizimida soliq riskini baholash va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish uslubiyoti.....	1374
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Sanoat korxonalarining innovatsion boshqaruvi tahlili va uning xususiyatlari	1383
Sarimsaqov Doniyor Xomidovich	
Surxondaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faol korxonalar va tashkilotlar tahlili	1390
Normurodov Alibek Anvar o'g'li	
Mehnat bozori: rivojlanish tendensiyalarining iqtisodiy-statistik tahlili, baholash va istiqbollari.....	1396
Mirzayeva Odina Imomnazar qizi	
Адаптивная модель антикризисных мероприятий, направленных на повышение эффективности управления активами, оптимизацию затрат и реструктуризацию задолженности	1402
Tajibayeva Kizlargul Ajiniyazovna	
Xalqaro va ichki turistik bozorlarda o'zbekistonning turistik mahsulotlarini targ'ib qilish mexanizmi	1409
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna	
Tourism infrastructure constraints and service gaps in uzbekistan's visitor economy.....	1412
Kurolov Maksud Obitovich, Xamidjonova Moxinur Xayrulla qizi	
Основные проблемы перехода на МСФО в республике узбекистане	1419
Махмудов Жамшед Ашрафович	
Binolar loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqishning nazariy va amaliy asoslari.....	1425
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Ayrim ta'lim tizimi bilan bog'liq terminlarning izohli lug'at va etimologik lug'at o'rtasidagi farqi.....	1429
Mahbuba Xoliqova Abdimo'min qizi	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati	1433
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Corpus-based framework of english teaching for competency-oriented curriculum design	1448
Raximova Gulnoza Sharipjanovna	
Masofaviy ta'lim tizimida matematika fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	1454
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Texnologik inqilob va mehnat bozorining transformatsiyasi	1459
A'zamova Feruza, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Sifat menejmenti tizimini rivojlantirish asosida uy-joy fondlarini boshqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari.....	1465
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	



O'zbekistonda ekologik turizm: yashil iqtisodiyot rivojini tezlashtiruvchi omil.....	1471
Rashidov Saidislom	
Navoiy viloyatida yirik sanoat monopoliyalarini rivojlantirishning tabiiy-iqtisodiy salohiyati ("Qizilqumsement" AJ misolida).....	1474
Savrieva Madina Xakimovna, Xamroyeva Shaxnoza Ibrohim qizi	
Eksport-import operatsiyalarida dolzarb muammolar va yechimlar	1480
Xudayberdiyeva Dilnoza Egamberdiyevna	
Роль международных финансовых центров в мировой экономике	1484
Нуриддинова Мафтуна Жахонгировна	
Measures to enhance the tax mechanism applied to business entities.....	1489
Kudiyarov Kishibay, Aytmuratov Qutlimurat Jalgasovich	
Davlat boshqaruv organlarining xizmat ko'rsatish sohasini samarali tashkil etish orqali kambag'allikni qisqartirish.....	1495
Asrorov Uchqun Akram o'g'li	
The role of green logistics in Uzbekistan and international trends.....	1499
Turakulova Dildora, Ismoilova Diyora	
Hududlarda turizm mahallalarning turistik salohiyatini oshirish usullari (Bog'ibaland turizm mahallasi misolida)	1506
Raxmanov Jasur Ubaydulloyevich	
Human Capital and Artificial Intelligence: Navigating the Future of Work	1511
Hamrokulov Mirabbos, Karimbergan Kariev	
Analysis of green economic growth indicators in uzbekistan.....	1518
Toshboyev Bekzod Bakhtiyorovich	
Toshkent viloyati iqtisodiyotida vino turizmning o'rni.....	1526
Jalilov Shoxjahon Xolbozor o'g'li	
O'zbekiston sharoitida qurilish loyihalari materiallari sarfini tahlil qilish va optimallashtirish va ularni iqtisodiy-matematik modelmodellashtrish	1530
Turayeva Mohinur Asliddinovna	
Auditorlik tekshiruvini rejalashtirishda dasturiy ta'minot va zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni.....	1534
Xodjayevo Mu'tabar Xamidulla qizi, Cho'ponova Gulira'no Doniyor qizi	
Suv tarkibining "wireless waterlight" qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish.....	1540
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
Zamonaviy sharoitda dxsh asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xizmatlar ko'rsatishning integratsion jarayonlari.....	1546
Ubaydullayeva Vasila Sadullayevna	
Donni saqlash va qayta ishlash korxonalari biznes jarayonidan olingan chiqindilar hisobini takomillashtirish	1549
Valijonov Xasanboy Akbaraliyevich	
Commercial real estate as a tool for synchronizing economic processes.....	1556
Nastassia Chyhyryna, Siarhei Liashuk, Allayeva Gulchexra Jalgasovna, Khakimdjanova Surayyo Khabibullayevna	
Asalarichilik faoliyatini rivojlantirish bosqichlari va istiqbollari	1563
Shodiyev Murodjon Bakirovich	
Sug'urta kompaniyalari samaradorligini oshirishga qayta sug'urtaning ta'sirini baholash.....	1567
Abirqulova Sohijjamol Normuhammad qizi	
O'zbekistonda yerga mulkchilik munosabatlarini tartibga solishning amaldagi mexanizmi tahlili.....	1572
Abdunazarov Oybek Abdumutalibovich	
«Sirdaryo viloyatida iqtisodiy faoliyatlar natijasida yerlarning degradatsiyasi muammosi: sabablari va yechimlari»	1578
O'ng'arov Hasan G'ayrat o'g'li	



The methodology for using a PM1-PM10 collection device in Uzbekistan is relevant to the climatic conditions	1584
Bakhtiyor Pulatov, Bobur Sadriddinov	
Gullar yetishtirishda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir etuvchi omillar: amaliy so'rovnoma asosidagi tahlil	1591
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	
Budjet mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratning huquqiy asoslarini takomillashtirish	1595
Jurayev Nomoz Tursunpulotovich	
Ishlab chiqarish korxonalari tashkiliy tuzilmasida logistika xizmati samaradorligini oshirish.....	1601
Maxmidov Shirinboy Botirovich	
Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish.....	1606
Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi	



BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI VA JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH

Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası tayanch doktranti
Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti o'qituvchisi
maxsadaliyevamaftuna@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jarayonlarni optimallashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar tezligi va sifati oshirilishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, bank tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, bank jarayonlari, optimallashtirish, raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalar.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the impact of digitalization of banking services on economic efficiency. The introduction of digital technologies in banking activities will optimize processes, reduce operating costs, and increase the speed and quality of services. Proposals are also put forward to accelerate the digital transformation of the banking system.

Key words: digitalization, economic efficiency, banking processes, optimization, digital transformation, innovative technologies.

Аннотация: В статье представлен углубленный анализ влияния цифровизации банковских услуг на экономическую эффективность. Внедрение цифровых технологий в банковскую деятельность позволит оптимизировать процессы, сократить операционные издержки, повысить скорость и качество обслуживания. Также будут выдвинуты предложения по ускорению цифровой трансформации банковской системы.

Ключевые слова: цифровизация, экономическая эффективность, банковские процессы, оптимизация, цифровая трансформация, инновационные технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar global moliyaviy tizimda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, bank sohasida xizmatlarni raqamlashtirish tendensiyasi nafaqat xizmat ko'rsatish sifati va tezligini oshirmoqda, balki iqtisodiy samaradorlikni ham sezilarli darajada oshirish imkonini bermoqda. O'zbekiston bank tizimi ham ushbu yo'nalishda jadal qadamlar tashlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan qabul qilingan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”¹ da raqamli iqtisodiyotni asosiy “drayver” sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish hamda iqtisodiyotning real sektorida ayniqsa moliya va bank sohalarida ishlab chiqarish va operatsion jarayonlarni raqamlashtirish darajasini 2026-yil yakuniga qadar 70 foizgacha oshirish. Dasturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish kabi strategiyalar kiritilgan. Shu munosabat

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son



bilan, banklar faoliyatida raqamlashtirish loyihalarini samarali amalga oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarurati dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklar faoliyatida raqamlashtirishni tatbiq etish masalasi so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab olimlar va tadqiqotchilar orasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu sohadagi tadqiqotlar bir nechta asosiy yo'nalishlarga qaratilgan bo'lib, ularning har biri turli nuqtayi nazardan o'rganilgan.

Birinchi navbatda, banklarning raqamli transformatsiyasi va uning samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'siri mavzusidagi adabiyotlar tahlil qilinadi. Qator olimlar raqamlashtirish jarayonining bank sektoriga ta'sirini chuqur tahlil qilgan. Masalan, D.G. Mishchenko va O.N. Smirnova kabi tadqiqotchilar raqamli texnologiyalar joriy etilganda banklarning operatsion xarajatlari 30–40% gacha kamayishi, mijozlar sonining oshishi va raqobatbardoshlikning kuchayishi haqida ta'kidlashadi. Biroq bunday transformatsiya jarayoni banklarga filiallarsiz, masofadan turib, dasturlar orqali 24 soat xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Buning natijasida xodimlar sonining sezilarli darajada qisqarishiga olib kelishi, shuningdek xodimlarning raqamli savodxonlik darajasini yuksaltirish va bank sohasida IT mutaxassislarini yetishtirish zarurligi haqida ham fikrlar bildirilgan².

Ikkinchi yo'nalishda banklar samaradorligining texnologik rivojlanish bilan bog'liqligi chuqur o'rganilib tahlil qilingan. Italiyalik olimlar V. Chiorazzo va C. D'Auria kichik va o'rta banklar uchun texnologik innovatsiyalarni joriy etish qimmatga tushishini ko'rsatib bergan. Biroq ular raqamlashtirish banklar daromadlarini oshirib, foyda marjasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi haqida ham o'z yo'nalishlari va fikrlarini bayon etgan. Shu bilan bir qatorda, fransiyalik olim T. Philippon ham ushbu mavzu bo'yicha tadqiqot olib borgan va moslashuvchan, texnologik innovatsiyalarni hisobga oluvchi huquqiy tizim yaratish kerakligi haqida taklif bildirgan³.

Uchinchidan, bank mijozlarining raqamli bank xizmatlarini qabul qilishiga kiberxavfsizlik tahdidlarining ta'siri ham dunyo miqyosida dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Bu borada A. Bouveret, Hasan va Dezdar kabi tadqiqotchilar, agar banklar kiberxavfsizlikni kafolatlay olmasa, mijozlar ishonchi pasayishi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi kamayishi mumkinligi haqida fikr bildirganlar. Ular mijozlar uchun aniq va samarali kiberxavfsizlik siyosatini ishlab chiqish, shuningdek moliyaviy tashkilotlar uchun "cyber resilience testing" tizimini joriy qilish zarurligini ta'kidlagan⁴.

Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan bo'lsak, jahon miqyosida banklar faoliyatida raqamlashtirish jarayonining dolzarbligi ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar bank sohasidagi raqamlashtirishning muhim infratuzilmalari hamda ularni amaliyotga joriy etish jarayonida yuzaga keladigan muammolar va imkoniyatlarni har tomonlama ko'rib chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy ta'sirini baholash murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, ushbu tadqiqotda tizimli yondashuv asosida bir nechta metodlar uyg'unlashtirilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli texnologiyalarni bank faoliyatiga joriy etishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini aniqlash va baholashdan iborat. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Mavzuni o'rganishda tizimli tahlil, statistik tahlil, komparativ tahlil va SWOT tahlillardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Masofaviy bank xizmatlarining asosiy vazifasi mijoz va bank o'rtasidagi turli axborotlarning masofadan almashinuvi hisoblanadi. Bunda bank tomonidan amaliyotning xavfsizligi ta'minlanadi. Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari turli shakllarda rivojlanib bormoqda. Ulardan biri bank-mijoz tizimi bo'lib, u bank va yuridik shaxs o'rtasida masofaviy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi. Bu tizim orqali korxonalar o'z hisobvaraqlarini boshqarishlari, to'lov topshiriqlarini yuborishlari, valyuta operatsiyalarini bajarishlari va hisob-kitob hujjatlarini olishlari mumkin. Bank-mijoz tizimi korporativ mijozlar uchun masofaviy bank xizmatlarini ko'rsatadi, elektron to'lov topshiriqlarini yuborishga, hisobotlar va tranzaksiya tarixini olishga imkon beradi. Xavfsizlikni ta'minlash uchun esa elektron raqamli imzo (ERI) tizimi ishlatiladi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda korporativ mijozlarning 85 foizdan ortig'i aynan ushbu tizimdan foydalangan.

Internet banking esa mijozning shaxsiy kompyuteri orqali internet tarmog'ida bank hisobvaraqlarini boshqarish imkonini beruvchi onlayn xizmat hisoblanadi. Bu xizmat jismoniy va yuridik shaxslar uchun bankka

2 Mishchenko D.G. va Smirnova O.N. (Rossiya). - "Tsifrovaya transformatsiya bankovskogo sektora" (2021)

3 Chiorazzo V., D'Auria C. - "Productivity and profitability in Italian banks: A panel analysis" (Bank of Italy, 2017)


4 Hasan M., Dezdar S. (2021) – The Impact of Cybersecurity Threats on Digital Banking Adoption.



bormasdan ko'plab xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Internet banking orqali hisob raqamlarni ko'rish, pul o'tkazmalari, kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, kredit va depozit holatini monitoring qilish hamda onlayn karta to'lovlarini amalga oshirish mumkin. Uning afzalliklari orasida 24/7 xizmat ko'rsatish, oson interfeys va katta miqdordagi tranzaksiyalarni nazorat qilish imkoniyatini ko'rsatish mumkin. Global miqyosda 2023-yil oxirida 2,6 milliard kishi internet bankingdan foydalangan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich jismoniy mijozlar orasida 65 foiz atrofida bo'lgan.

Mobil banking smartfon yoki planshet orqali bank xizmatlaridan foydalanishga imkon beruvchi mobil ilova asosidagi xizmatdir. U internet bankingning mobil versiyasi bo'lib, ko'proq qulaylik va real vaqt rejimida ishlashni ta'minlaydi. Mobil banking orqali pul o'tkazmalari (P2P, QR-kod orqali, telefon raqami orqali), karta bloklash yoki aktivlashtirish, kredit va depozit boshqaruvi, bonus tizimlari va cashback ko'rsatkichlari boshqariladi. Afzalliklari sifatida mobil internet orqali ishlashi, real vaqtli bildirishnomalar va biometrik xavfsizlik (Face ID, Touch ID) keltiriladi. O'zbekistonda mobil banking foydalanuvchilari soni 2020-yildagi 3,1 milliondan 2024-yilda 8,5 millionga yetgan (Markaziy bank hisobotiga ko'ra).

SMS banking esa mobil telefon orqali qisqa matnli xabarlar yordamida bank xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Bu xizmat ko'proq push-bildirishnoma yo'q mijozlar yoki internet mavjud bo'lmagan holatlar uchun qulaydir. SMS banking orqali hisob holatini bilish, tranzaksiya haqida ogohlantirish, kredit to'lovlari haqida eslatmalar, maxsus buyruqlar orqali oddiy operatsiyalar bajarish mumkin. Masalan, 1111 raqamiga "BALANS" deb yuborish orqali balansni bilish mumkin. Ushbu tizimning afzalliklari internetga bog'liq emasligi, har qanday telefon orqali ishlashi va operativ ogohlantirishlar ta'minlanishidadir. O'zbekiston bo'yicha 2023-yilda mobil aloqa orqali SMS banking xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 4 milliondan oshgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich taxminan 4,5–5 million atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda (1-rasm).



1-rasm. Masofadan bank xizmatlarini korsatuvchi tizimlaridan foydalanuvchilar soni⁵

Bank xizmatlarini raqamlashtirish natijasida mijozlarga yaratilayotgan qulayliklar tufayli masofaviy bank xizmatlaridan (internet banking va mobil banking xizmat turlari yordamida bank hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini boshqarish, USSD-so'rov yordamida bank plastik kartalaridagi mablag'larni boshqarish, SMS-xabarnoma yordamida hisobvaraqdagi pul mablag'lari harakati haqida ma'lumot olish) foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga, 2015-yilning mos davriga nisbatan 1440 barobarga oshgan. Bu juda sezilarli darajadagi ko'rsatkich bo'lib, foydalanuvchilar soni 2,5 milliondan 3,6 milliardgacha yetgan.

Ushbu maqolada bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy ta'siri, operatsion samaradorligi, mijozlar sonini qanday oshirish va daromadni ko'paytirish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan.

Bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayonining iqtisodiy ta'sirini tahlil qilish uchun O'zbekiston tijorat banklarining 2020–2024-yillar davomidagi raqamli faoliyat ko'rsatkichlari asosida empirik tadqiqot o'tkazildi. Tahlil asosan quyidagi indikatorlar asosida olib borildi:

- operatsion xarajatlar dinamikasi;
- daromadlar va foyda o'sishi;

5 <https://moneyzine.com/banking/online-banking-statistics> va <https://scoop.market.us/online-banking-statistics> sayt ma'lumotlaridan foydalanib muallif tomonidan tayyorlandi.



mijozlar sonining ortishi;
raqamli xizmatlar ulushi va tezligi;
bank rentabelligi ko'rsatkichlari (ROA, ROE).

Operatsion xarajatlar tahlili

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish jarayonini faol joriy etgan banklarda operatsion xarajatlar hajmi sezilarli darajada kamaygan. Xususan, Anor bankda 2020–2024-yillar davomida raqamli xizmatlar ulushi 42 foizdan 83 foizgacha oshgan va shu davrda operatsion xarajatlar 19 foizga kamaygan. TBC bankda esa filiallar soni qisqartirilib, xizmatlarning 75 foizdan ortig'i mobil ilovalar orqali ko'rsatilmoqda. Bu esa xizmat haqi xarajatlarni 22 foizgacha kamaytirgan. Bu shuni anglatadiki, raqamli texnologiyalar banklar uchun xarajatlarni optimallashtirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Daromadlar va foyda o'sishi

Mobil va internet banking xizmatlari orqali ko'rsatilgan xizmatlar hajmi oshgani sari banklar foydasi ham ortgan. Jumladan, raqamli xizmatlar orqali amalga oshirilgan to'lovlar hajmi so'nggi besh yilda o'rtacha 3,2 barobarga oshgan. Mobil banking foydalanuvchilari soni 2020-yilda 4,2 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda 11 million nafarga yetgan. Bu ko'rsatkichlar raqamli xizmatlarning banklar uchun daromad manbai sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Mijozlar sonining ortishi va xizmat sifati

Raqamlashtirish orqali bank xizmatlarining tezligi, qulayligi va 24/7 rejimida ishlash imkoniyati mijozlar sonining oshishiga olib kelmoqda. Masalan, so'rovnoma natijalariga ko'ra, mijozlarning 85 foizi raqamli xizmatlardan foydalanishni an'anaviy xizmatlarga nisbatan afzal bilishini bildirgan. Bank xizmatlarining o'rtacha ishlov berish vaqti 2020-yilda 2,5 soat bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 10 daqiqagacha qisqargan (onlayn kreditlash va to'lovlar). Bu esa banklar xizmat sifati va mijozga yo'naltirilgan yondashuvda yuksalayotganini ko'rsatadi.

Rentabellik ko'rsatkichlarining yaxshilanishi

Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash uchun banklarning rentabellik ko'rsatkichlari tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval. Banklarning rentabellik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2020	2024	O'sish
ROA (aktivlar rentabelligi)	1.5%	2.4%	+0.9%
ROE (kapital rentabelligi)	8.2%	12.6%	+4.4%

Ushbu dinamik o'sish banklar o'z aktivlari va kapitalidan samaraliroq foydalanayotganini ko'rsatadi.

5. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash

O'zbekiston tajribasi Estoniya, Turkiya va Hindiston kabi davlatlar bilan taqqoslanganda quyidagi xulosalarga kelindi:

Estoniyada bank xizmatlarining 98% onlayn tarzda ko'rsatiladi va bu mamlakatda bank sektorining daromadliligi YalMga nisbatan 3,1% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich hali 1,6–1,8% atrofida bo'lib, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Turkiyada mobil banking orqali mijozlar jalbi 35% ga oshgan bo'lsa, O'zbekistonda bu ko'rsatkich so'nggi yillarda 62% ga yetgan (CBU va Deloitte ma'lumotlari).

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, raqamli xizmatlar moliyaviy inklyuziyani oshiradi, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda ayollar, yoshlar va chekka hudud aholisi uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etgan banklarda o'sish sur'atlari raqamlashtirilmagan banklarga nisbatan 20–25% yuqori ekani aytilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini raqamlashtirish bank xarajatlarni kamaytiradi, foyda va daromad oshishiga olib keladi, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshiradi, mijozlar sonining ortishiga sabab bo'ladi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Demak, bank raqamlashtirish faqat texnologik emas, balki iqtisodiy jihatdan ham yuqori samaraga ega strategik yo'nalishdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bank-mijoz, internet banking, mobil banking va SMS banking kabi xizmatlar nafaqat bank tizimining raqamlashtirilishini tezlashtirdi, balki moliyaviy inklyuziyani oshirishga hamda mijozlarga ko'proq qulayliklar



yaratishga xizmat qilmoqda. Kelajakda bu xizmatlar sun'iy intellekt, blokcheyn va big data asosida yanada rivojlanib, mijozlarga individual yondashuvlarni taqdim etadi.

Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi ularning iqtisodiy samaradorligini oshiradi, biroq bu bilan birga yangi avlod tahdidlarini – kiberxavfsizlik xatarlarini ham keltirib chiqaradi. Shuning uchun, kiberhujumlar soni va murakkabligini kamaytirish hamda oldini olish uchun AI va Machine Learning asosida kiberxavfsizlik tizimlarini avtomatlashtirish zarur. Bu orqali hujumlarni oldindan aniqlash va “real-time monitoring”ni joriy qilish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tadqiqotda aniqlangan asosiy natijalardan biri shundaki, bank xodimlarining raqamli iqtisodiyot talablariga to'laonli javob bermasligi va bilimlar yetishmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, bank xodimlarining raqamli savodxonligini oshirish va mijozlar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish lozim.

Shuningdek, banklar raqamlashtirish darajasini baholovchi milliy indikator tizimini joriy etishi zarur. Bu orqali banklar indikatorlar bo'yicha o'z o'rnini yaxshilashga intilib, raqamli texnologiyalarni yanada faol joriy qiladi va oxir-oqibat mijozlar uchun qulay hamda arzon xizmatlarni taqdim etadi. Indikatorlar qishloq joylar, yoshlar, ayollar va boshqa moliyaviy jihatdan cheklangan qatlamlar uchun qanday raqamli xizmatlar taklif qilinayotganini o'lchashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bouveret A. (2018) – Cyber Risk for the Financial Sector: A Framework for Quantitative Assessment.
2. Davletov D.S., “Raqamli bank xizmatlarining iqtisodiy samaradorligi”, Toshkent, 2023
3. FICCI, BCG & IBA (India), “The Future of Banking”, 2022
4. Hasan M., Dezdar S. (2021) – The Impact of Cybersecurity Threats on Digital Banking Adoption.
5. Mamadiyarov. Z.T Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish. Avtoreferat. –2019-y. –13 b.
6. Statista – “Global digital banking user statistics”, 2023
7. Tojiyev R.R., Rahmatov T.S. Zamonaviy sharoitda bank xizmatlar bozorining nazariy jihatlarini/Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. –No 6, noyabr- dekabr, –2020-yil.
8. Chiorazzo V., D'Auria C. -“Productivity and profitability in Italian banks: A panel analysis” (Bank of Italy, 2017).
9. Shodhganga – Research Repository on Banking Digitization
10. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisobotlari (2023–2024) – www.cbu.uz
11. Блажевич А.А., Рябенко А.А. Необанк как новое направление финансовых инноваций в Российской Федерации // Вестник Института экономических исследований. –No4 (12),– 2018. –160-168 с.
12. Ковалев М., Головенчик Г. Цифровая трансформация банков // Банковский вестник. No11(664),2018.50-60 с.
13. <https://www.worldbank.org/ext/en/home>
14. <http://www.cbu.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
